

IX. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida 2022- yilning yanvar-iyun oylarida 3 663 ta kichik biznes subyektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etilib, ularning soni 51 301 taga yetdi.

2022- yil 1- iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 46 505 tani va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 %ni tashkil qildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 5 279 tasi (105,5 %) Zangiota, 4 271 tasi (105,8 %) Qibray, 3 425 tasi (107,3 %) Toshkent tumanlari hamda 2 645 tasi (113,0 %) Chirchiq, 2 584 tasi (107,8 %) Angren shaharlari hissalariga to'g'ri keladi.

Eng katta ulush


Zangiota tumanida	10,5 %
Ohangaron shahrida	10,6 %
Ohangaron tumanida	10,4 %
Chirchiq shahrida	13,0 %
Angren shahrida	7,8 %
O'rta Chirchiq tumanida	6,8 %
Yangiyo'l tumanida	6,0 %

Eng kichik ulush

Quyi Chirchiq tumanida	1,2 %
Olmaliq shahrida	1,1 %
Bekobod tumanida	7,9 %
Oqqo'rg'on tumanida	2,8 %
Toshkent tumanida	7,3 %
Piskent tumanida	5,4 %
Qibray tumanida	5,8 %


**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, %da**

- Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish
- Boshqalar




2022- yil yanvar-iyun oylariga viloyatimizda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 3 663 tani tashkil qilgan. Bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 917 taga yoki 79,9 %ga kamaygan.


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining yillar
kesimida soni (yanvar-iyun oylarida, birlikda)**



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining
yillar kesimida o'sish dinamikasi (yanvar-iyun oylarida, %da)**



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi
2022- yil yanvar-iyun holatiga (jamiga nisbatan %da)**




Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan subyektlarning 35,8 %i), sanoatda (18,0 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (14,8 %) hamda yashah va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda (7,9 %) tashkil etilgan.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- yalpi hududiy mahsulotning 45,1 %i (2021- yil yanvar-iyunda 46,9 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi;
- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 20 277,4 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 15,4 %) yoki 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 107,2 % tashkil qildi;
- qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi 8034,6 mlrd. so‘mni tashkil qilib, o‘sish sur’ati 101,1 % (qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yalpi mahsulotining 94,0 %) tashkil qildi;
- 14 515,0 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (viloyat bo‘yicha umumiy investitsiyalar hajmining 61,6 %i) o‘zlashtirildi va 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,0 %ni tashkil qildi;
- 5 617,2 mlrd. so‘mlik qurilish-pudrat ishlari (umumiy qurilish-pudrat ishlari hajmining 80,9 %i) bajarildi va 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 10,6 %ga ko‘paydi;
- avtomobil transporti yuk aylanmasining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,3 %ga kamaydi (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 56,9 %), yo‘lovchi aylanmasi esa 3,2 %ga (umumiy yo‘lovchi aylanmasining 97,8 %) ko‘paydi;
- chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 69,7 % yoki 9 515,6 mlrd. so‘m (o‘sish 100,3 %) hamda xizmatlar umumiy hajmining mos ravishda 67,9 % yoki 8 223,3 mlrd. so‘mi (o‘sish 108,4 %) shakllantirildi;
- 1018,8 mln. AQSh dollarasi (umumiy eksport hajmining 24,9 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport hamda 1562,0 mln. AQSh dollarasi (umumiy import hajmining 46,2 %i) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Yalpi hududiy mahsulot va iqtisodiyot tarmoqlari mahsuloti (ishlar, xizmatlar)
umumiylajmida kichik tadbirdorlik (biznes) ulushining o'zgarishi
(umumiylajmga nisbatan % hisobida)**

■ 01.07.2021-yil ■ 01.07.2022-yil



**Kichik tadbirdorlikning hududlar kesimida iqtisodiyotning
asosiy tarmoqlaridagi ulushi, %da**

	sanoat	qurilish	xizmat	savdo	investitsiya
Viloyat bo'yicha	15,4	80,9	67,9	69,7	61,6
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	27,0	100,0	34,0	26,0	29,8
Olmaliq	1,0	16,5	69,9	85,4	15,8
Angren	19,0	67,6	64,5	55,3	53,6
Bekobod	2,0	97,6	65,1	87,2	29,9
Ohangaron	31,3	100,0	74,2	93,5	91,4
Chirchiq	19,0	90,4	66,2	62,9	57,7
Yangiyo'l	53,0	90,9	86,5	94,7	80,8
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo'rg'on	21,0	100	93,4	98,1	92,8
Ohangaron	9,0	99,2	63,7	98,1	91,7
Bekobod	41,3	100	66,2	92,9	56,5
Bo'stonliq	18,0	90,4	50,7	67,2	68,7
Bo'ka	27,0	100	92,9	92,2	79,4
Zangiota	70,0	100	56,2	45,9	61,8
Qibray	17,0	84,5	58,9	84,2	75,3
Quyi Chirchiq	61,0	100	70,4	95,4	91,2
Parkent	91,0	100	74,3	97,2	67,4
Piskent	34,0	100	73,3	91,1	83,8
O'rta Chirchiq	38,0	99,3	82,0	84,7	87,7
Chinoz	39,0	100	66,4	74,4	88,5
Yuqori Chirchiq	70,0	93,3	68,2	92,3	72,5
Toshkent	70,0	100	75,8	59,8	94,1
Yangiyo'l	39,0	90,5	81,9	89,8	70,1